2B

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
_____________ G.Sh.Rixsiyeva
2020 yil “29” 08

“KELISHILDI”
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
_____________
2020 yil “29” 08

Ro‘yxatga olindi:№ MD-5A120102
2020 yil “29” 08

# MUTAXASSISLIKNING NAZARIY MASALALARI (ARAB)

## FANDASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 100000 – Gumanitar soha |
| **Ta’lim sohasi:** | 120000 – Gumanitar fanlar |
| **Mutaxassislik:** | 5A120102 - Lingvistika (sharq tillari) |

**Toshkent - 2020**

| | |
|---|---|
| | якунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. // Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 16 январ, №11.<br>10. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. - 48 б.<br>11. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз биланқурамиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. - 488 б.<br>1. الشيخ مصطفى الغلاييني، جامع الدروس العربية، بيروت، 1993. ص. 738<br>2. فؤاد نعمة. ملخص قواعد اللغة العربية. القاهرة.. نهضة مصر. 1973. ص. 214<br>3. محمود الزمخشري. الانموذج في النحو. مصر.1323 ه./1987م. ص. 408<br>**Axborot manbalari:**<br>12. **www.almeshkat.com**<br>13. **www.fundarabist.ru**<br>14. **www.russarabbc.ru** |
| **7.** | Fan dasturi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha O‘quv- uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashining 2020 yil “29” 08 dagi 4 -sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.<br>O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil “29” 08 dagi 452 - sonly buyrug‘i bilan ma’qullangan fan dasturlarini tayanch oily ta’lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan. |
| **8.** | **Fan/modul uchun ma’sul:**<br>Begmatova B.M. – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Arab filologiyasi” kafedrasi dotsenti, yuridik fanlari nomzodi |
| **9.** | **Taqrizchilar:**<br>Shokirova Z.N. – O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi “Arab tili va adabiyoti al-Azhar” kafedrasi dotsenti, t.f.n.<br>Qosimova S.S. – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Arab filologiyasi” kafedrasi dotsenti, PhD. |

tasnifiy yondashish, yozma manbalarning til xususiyatlari, o‘qitilayotgan sharq tilining asosiy manbalari, yozma adabiy tilning yuzaga kelishi va uning tarixiy takomili haqida ***tasavvurga ega bo‘lishi;***

- o‘qitilayotgan sharq tilining taraqqiyot qonuniyatlarini, o‘qitilayotgan tilning kerakli masalalarini aniqlash, o‘qitilayotgan sharq tili muammolarini tadqiq etish uchun zarur materiallarniizlab topish, tasnif qilish va tizimli asosda tahlil qilish va ulardan ***foydalana olishi;***;

- o‘qitilayotgan sharq tiliga xos tipik hodisa-qonuniyatlarni tilshunoslikning umumiy qonuniyatlari bilan bog‘lay olish bo‘yicha ***tajriba va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak***.

**4.** **VII. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**

- Ma’ruzalar;
- seminarlar (mantiqiufikrlash, tezkorsavol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

**5.** **VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.

**6.** **Asosiy adabiyotlar**

1. Hifni Nosif. Ad-durusu-n-nahviya. –Iskandariya: Daru-l-aqida, 2007.
2. Nosirova M.A. tilshunoslik bilimlari tarixi (Arab tilshunosligi) – T.: Semurg‘ media, 2011. -248.
3. Qahhorov A., Nosirova M. “Gap sintaksisi”. Arab tilshunoslari talqinida.
4. - T.: TIU, 2013.
5. Aliev D., Qodirov T.Sh. “Arab tili leksikologiyasi”. –T.: ТошДШИ, 2010 y.
6. Qosimova S.Hamiduddin Daririyning “Muqaddima” asari: matn va tadqiq. –T.: ТошДШИ, 2014.
7. Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. - М.: “Восточная литература” РАН , 2001.

**Qo‘shimcha adabiyotlar**

8. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2016.- 56 б.
9. Мирзиёв Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил



| Fan/modul kodi<br>5ALNM125 | | O‘quvyili<br>2020-2021 | Semestr<br>1 | ECTS - Kreditlar<br>5 | |
|---|---|---|---|---|---|
| **Fan/modul turi**<br>Majburiy | | **Ta’lim tili**<br>O‘zbek/rus | | **Haftadagi dars soatlari**<br>4 | |
| 1. | **Fanning nomi** | **Auditoriyamashg‘ulotlari (soat)** | **Mustaqilta’lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** | |
| | **Mutaxassislikning nazariy masalalari** | 60 | 90 | 150 | |

**2.** **I. Fanning mazmuni**

Fanni o‘qitishdan maqsad. Mutaxassislikning nazariy masalalari fani mutaxassislik sohasidagi ilmiy qarashlar, turli munosabatlarning o‘ziga xos jihatlari, ularni baholashning ilmiy asoslari, mutaxassislik sohasiga oid ilmiy markazalar, ularning fan rivojiga qo‘shgan ulushi,

Fanning vazifasi. Mutaxassislikdagi eng yangi yo‘nalishlar va ularning istiqbollari, mutaxassislikning tugun va yechimlari xususida ma’lumot berish, shuningdek, mutaxassislik sohasidagi yangiliklar va mavjud muammolarning yechimlari bilan tanishtiradi.

**II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**
**II.I. Fan tarkidiga quyidagi mavzular kiradi:**
**Fanga kirish.**

O‘qitilayotgan sharq tilining taraqqiyot bosqichlari. O‘qitilayotgan sharq tilining nazariy masalalari va muammolari to‘g‘risida ma’lumotlar.

**AShTning dunyo tillari orasida tutgan o‘rni.**

Asosiy sharq tilining dunyo tillari orasida tutgan o‘rni. O‘rganilayotgan sharq tilida yaratilgan yozma manbalar. Yozma manbalarning til xususiyati.O‘rganilayotgan sharq tilining yuzaga kelishi va tarihiy takomili.

**Grafika va fonetikaning nazariy masalalari**.

O‘rganilayotgan tilning grafikasi va uning asoslari. Fonologiya va fonetika. O‘rganilayotgan tilning fonetik xususiyati. Imlo masalasi. O‘rganilayotgan sharq tilida bo‘g‘in. Tovush va harf. Urg‘u masalasi.

**Leksikaning nazariy tugunlari**

So‘z tushunchasi. O‘rganilayotgan sharq tilida leksik ma’noning torayishi va kengayishi. So‘zlarning ma’no munosabatiga ko‘ra turlari. Arab tilida so‘z yasalishi masalasi (الاشتقاق). Sinonimlar. Omonimlar. Antonimlar. O‘z qatlam va o‘zlashgan qatlam. Frazeologiya. Neologizmlar.

### Morfologiyaning nazariy tugunlari

O‘rganilayotgan tilda grammatik kategoriya va uning turlari. Grammatik son kategoriyasi. Kelishik kategoriyasi. Grammatik zamon kategoriyasi. O‘rganilayotgan tilda so‘z turkumlari. Arab tilshunosligida so‘zlarni turkumlarga ajratish masalasi.

### Sintaksisning nazariy tugunlari

Arab tilshunosligida sintaksis tushunchasi.Gap sintaksisi. O‘rganilayotgan sharq tilida gaplarning tuzilishiga ko‘ra turlari.Gap bo‘laklari. Gapva uning turlari hamda tarkibga oid masalalar.Soz birikmalari.Sintaktik munosabat turlari.

### Mutaxassislik sohasidagi ilmiy qarashlar

Mutaxassislik yo‘nalishiga tegishli jahon tilshunosligidagi turli nazariy qarashlari. Arab tilshunosligi bo‘yicha ilg‘or nazariyotchilar va ularning nazariy qarashlari. Mutaxassislik sohasigaoid ilmiy markazlar.

## III. Amaliy mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlaruchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1-mavzu. Arab tilida yaratilgan yozma manbalar va ularning til xususiyati.

2-mavzu.Umum xalq tilining adabiy tilga munosabati.

3-mavzu. Fonemaning nazariy masalalari.

4-mavzu.Arab tilida imlo masalasi.

5-mavzu. Arab tilshunosligida leksikaning nazariy muammolari.

6-mavzu. Arab tilida so‘z yasalishi masalasi (الاشتقاق).

7-mavzu. Arab tilining lug‘at tarkibi.

8-mavzu. Morfologiyaga oid masalalar. O‘rganilayotgan tilda so‘z turkumlari.

9-mavzu. Arab tilida morf va morfema tushunchalari.

10-mavzu. Arab tilshunosligida sintaksis tushunchasi.Soz birikmalari.

11-mavzu. Sintaktik munosabatlar.

12-mavzu. Arab tilida gaplarning tuzilish va ifoda maqsadiga ko‘ra turlari.

13- mavzu. Arab tilida neologizmlar va frazeologizmlar.

14-mavzu. Arab tilshunosligi bo‘yicha ilg‘or nazariyotchilar va ularning qarashlari.

15-mavzu. Mutaxassislikdagi eng yangi yo‘nalishlar va ularning istiqbollari.

Nazariy mashg‘ulotlarda olingan bilimlarni talabalar amaliy mashg‘ulotlarda ko‘nikma va malakalarini oshirib, mustahkamlab boradilar. Amaliy darslarga tayyorlanish uchun talabalar qo‘shimcha ilmiy adabiyotlarni o‘qiydilar va bu ham o‘z o‘rnida mazkur fanni yanada chuqur egallash uchun yordam beradi.

Amaliy mashg‘ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi zarur. Mashg‘ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.



## IV. Kurs ishi bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Kurs ishi fan mavzulariga taalluqli masalalar yuzasidan talabalarga yakka tartibda tegishli topshiriq shaklida beriladi. Kurs ishining hajmi, rasmiylashtirish shakli, baholash mezonlari tegishli kafedra tomonidan belgilanadi. Kurs ishini bajarish talabalarda fanga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qilishi kerak.

Kurs ishi uchun quyidagi tahminiy mavzular tavsiya etiladi:

1.Arab tilshunosligida leksikaning nazariy muammolari.
2. Arab tilida so‘z yasalishi masalasi (الاشتقاق).
3. Arab tilining lug‘at tarkibi.
4. Morfologiyaga oid masalalar. O‘rganilayotgan tilda so‘z turkumlari.
5. Arab tilida morf va morfema tushunchalari.
6. Arab tilshunosligida sintaksis tushunchasi.Soz birikmalari.
7. Sintaktik munosabatlar.
8. Arab tilida gaplarning tuzilish va ifoda maqsadiga ko‘ra turlari.
9. Arab tilida neologizmlar va frazeologizmlar.
10. Arab tilshunosligi bo‘yicha ilg‘or nazariyotchilar va ularning qarashlari.

## V. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

### Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Arab tilidayaratilganyozmamanbalarninsqiyosiytadqiqi (referat, slayd).
2. Arab tilining tovush qurilishiga oid ilmiy tadqiqotlar (doklad, slayd).
3. Tilshunaslikda leksikologiyaga doir tadqiqotlar (referat, slayd)..
4. Arab tilida o‘z va o‘zlashgan so‘zlar. Frazeologiya.
5. Arab tilshunosligida morfologiyaga doir tadqiqotlar. (mavzuni arab tilida gapirib berish, slayd tayyorlash).
6. Arab tilshunosligining ilg‘or nazariyotchilari va ularning qarashlari (mavzuni arab tilida gapirib berish, referat tayyorlash).

Mustaqil o‘lashtiriladigan mavzular bo‘yicha magistr tomonidan referatlar tayyerlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3.

## VI. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigankompetensiyalar)

**Fanni o‘zlashtirishnatijasida magistr:**

Fan bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga quyidagi talablar qo‘yiladi. ***Talaba:***

- o‘qitilayotgan sharq tilining nazariy masalalari, asosiy sharq tilining dunyo tillari orasida tutgan o‘rni, ushbu tilda yaratilgan yozma manbalarga